

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi
majlisining navbatdagi**

2-sonli BAYONI

2024-yil 5-aprel

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: X.R. Mamasaidov – vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a'zolari (ro'yxat bo'yicha).

KUN TARTIBI:

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasini
“Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat
dasturi to'g'risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonida belgilangan
ustuvor vazifalar to'g'risida**

(X.Mamasaidov, M.Boboyorov, I.Bakirova, N.Mamaraimova, X.Mamasaidov)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonida “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida belgilangan keng ko'lamli islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish borasida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar xususida batafsil to'xtalib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonining 4-ilovasi 23-bandida “Xalq xizmatidagi” davlat boshqaruvini tashkil etishda **davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlarini samarali vositaga aylantirish** vazifasi belgilanganligi alohida ta'kidlandi.

Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish natijasi bo'yicha yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Kengash raisi X.Mamasaidovning “O'zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda vazirlik huzuridagi Jamoatchilik

kengashi tomonidan bajariladigan ishlar to'g'risidagi takliflari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamoatchilik kengashi a'zolariga:

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlarini samarali vositaga aylantirish hamda vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati bo'yicha takliflarini vazirlikka taqdim etish vazifasi topshirilsin.

3. Vazir maslahatchisi (N.Mamaraimova) Jamoatchilik kengashi kun tartibida ko'rilgan masalalar va kengash a'zolari tomonidan taqdim etilgan takliflarni vazirlik rahbariyatiga kiritilishini ta'minlasin.

4. Mazkur yig'ilish qarorining ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Yig'ilish kotibi



N.Mamaraimova